Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy faoliyatga o'rgatish orqali idrokni rivojlanishi

Safarova Mohigul Sayfulla qizi
Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ayni vaqtda sezgi organlariga ta'sir qilib turgan narsa hamda hodisalarni ongimizda yaxlit aks ettirilishidan iborat bo'lgan psixik jarayonga **idrok** deb nomlaymiz. Sezgilarga qaraganda idrok voqelikni aks ettirishning ancha yuksak ko'rinishidir.

Kalit so'zlar: Idrok, borliq, atrof –muhit, tasavvur olami, bolalar, estetik idrok, aqliy rivojlanish, rasmli idrok.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda idrokning rivojlanishi: bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga qamrab olish davri uch yosh hisoblanib, bu yoshda bolalarning faoliyat darajasi judayam kattalashadi hamda bolalarda bu yoshda nutq jadal tezlikda o'sa boshlaydi. Shuning uchun ham bolalar bu yoshda juda ko'plab voqea va hodisalarga katta qiziqish bildiradi hamda ularni mustaqil bajarishga bo'lgan ishtiyoq juda kuchli bo'ladi. Bolalarning hayotidagi bu o'zgarishlar albatta ularning idrokiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Bolalar kun davomida juda ko'plab narsa va hodisalarga duch kelishadi va ularning nima ekanligini hamda qanday nom bilan nomlanishini idroklari orqali o'zlari aytishga harakat qilishadi. Albatta bu jarayonda kattalar bolalarga o'z yordamlarini beradilar. Shuningdek, katta yoshdagi bog'cha bolalari narsa va hodisalarni idrok qilishi kichik yoshdagi bolalarga qaraganda ancha oson chunki, ularda so'z boyligi kichik maktab yoshidagi boalarga qaraganda ancha ko'p shu bois ham ularda kichik maktab yoshidagi bolalarga qaraganda mustaqil idrok eta oladilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan turli (hayvonlar hamda o'simliklar bog'iga) tashkillashtiriladigan sayohatlar bolalarning idrokining yaxshi rivojlanishiga katta ahamiyat kasb etadi. Chunki ekskursiya vaqtida bolalar turli o'simlik va hayvonlarni kuzatishadi va o'z navbatida ularga nom bera boshlaydi. Bunda tarbiyachi tomonidan bolalarga o'simlik va hayvonlarning qanday nomlanishi haqida sodda va qisqacha tushuntirib beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar idrokining o'ziga xos tomonlaridan biri, bolalar turli narsa va hodisalarni idrok qilishda faqat narsalarning ko'zga tashlanib turadigan belgilariga qarab idrok etadilar. Biroq bu yoshdagi bolalarning tajribalari hali unchalik yetarli emasligi sababli ya'ni narslarning mohiyati bilan bog'li bo'lgan eng aniq va muhim belgilarini ko'ra olmaydilar. Shuning uchun ham bu yoshdagi bolalar (ko'proq kichik yoshdagi bolalar kiradi) uchun asosi`y belgilar narsalarning rangi hamda shaklidir. Shuning uchun ham bog'cha yoshidagi boalar narsalarning rangi va shaklini qiynalmasdan ajratib beradilar. Ammo kichi guruhdagi bolalar esa bundan mustasno. Chunki bu yoshdagi boalar uchun geometrik shakllarni farqlash biroz qiyinchilik keltirib chiqaradi. Biroq bu guruhdagi bolalar bilan ishlash jarayonida ularga geometrik shakllani tushuntirishda qiyoslash orqali o'rgatish yaxshi samara beradi. Masalan: bolalarga aylana shaklini nonga yoki tarelkaga qiyoslashimiz, uchburchak shaklini esa uy tomiga yoki peramidaga qiyoslab tushuntirish mumkin. Bu esa bolalarda geometrik shakllarni oson hamda tezroq o'rganish imkoniyatini beradi.

Demak bog'cha yoshidagi bolalarning idrokining shakklanishi bog'cha davrdan boshlanar ekan. Masalan, bolalarga ranglari turlicha bo'lgan geometrik shakllarni berib ularni alohida qutilarga solish topshirig'i berilsa, bolalalar geometrik shakllarning rangiga emas balki ularning shakliga qarab guruhlarga ajratishadi. Bu ham ulardagi idrokning hali yetarlicha malakaga ega emasligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, bolalarda fazoviy idrokdan ham qiyinrog'i bo'lgan vaqt tushunchasini idrok qilishga qiynaladilar. Chunki ular vaqtni tuxtovsiz jarayon ekanligini anglay olmaydilar hamda idrok ham eta olmaydilar.

Bolalar vaqtning so’z bilan o’lchanadigan ko’rinishlarini ham idrok qilishga qiynalishadi. Maslalan, kecha, bugun, ertaga, indinga, peshin, kechqurun, soniya, daqiqa, soat, kun, hafta, oy, yil, asr kabi vaqt o’lchov birliklarini mavhum xaraterga ega ekanligi sababli , ularni biror rasm yoki ko’rinishorqali tasvirlashni imkoni yo’qligi sababli ularbush mavhum tushunchlarni idrok eta olishmaydi. shu bilan birga ular bugunning kechaga, kechani esa o’tgan kunga tabiiy ravishda aylanib qolishini tasavvur eta olishmaydi. Demak bog’cha yoshidagi bolalarga vaqt birlik o’lchovlarini idrok qilishda ularga kun davomida qo’llaniladigan rejimning o’rni judayam katta ahamiyatga ega. Misol uchun, bolalarga quyosh chiqqanda ertalab, kun botganda esa kechqurun bo’ladi deb asta sekinlik bilan vaqt tushunchalarini idrok etishga yordamlashish zarur. Xususan kichik guruhdagi bolalar esa asosan bugungi kun tushunchasi bilan yashaydilar va faqat bugungi har kunini bugungi kun deb tasavvur etadilar. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi boalarga vaqtni idrok qilishlari uchun avvalo bugun, ertalab, peshin, kechqurin, kechasi kabi vaqt o’lchov birliklarini yaxshilab o’rgatish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qodirova F.R, Qodirova R.M. Bolalar metodik ishlar. Darslik.2012.

2. Qayumova N. Makatgabcha pedagogika. T 2013.

3. Qodirova F. R. Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi. T. 2013.

Internet manbaalari:

1. https://gendocs.ru
2. https://n.ziyouz.com
3. http://www.genderi.org

WORDLY KNOWLEDGE